

---

## EHTIYOJMAND OILALARGA SAXOVAT YORDAMLARI KO'RSATILMOQDA

Ramazon oyi – ezgu fazilatlar va mehr-muruvvat oyi. Muborak oyda kishilar bir-birlarini yo'qlaydi. Toshloq tumanida ham ushbu oyda yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qotgan, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, bemorlar xolidan xabar olinmoqda. Kuni-kecha tuman hokimligi hamda homiylar ko'magida "Suv boshi" MFYda kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan xonadonlarga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi. Ramazon oyida bu kabi ezgu amal va xayrli yo'qlovlar davom etmoqda.

2023-04-19 14:42:26